

MA'LUMOTLARNI TURLI KO'RINISHIDA IFODALASH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI

58 – MAKTABNING BOSHLANG'ICH SINFI OQ'ITUVCHISI

PARDAYEV AZAMAT

Darsning maqsadi:

- a) o'quvchilarning *Ma'lumotlarni* jadval ko'rinishida ifodalash, ular ustidan amallar bajarish yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirish va yana bir karra mustahkamlash;
- b) dars jarayonida o'quvchilarda hayotni to'g'ri tasavvur eta olishga o'rgatish, ularda o'zaro ahillik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalash;
- d) o'quvchilarning bog'lanishli nutqi, eshitish faoliyati, mantiqiy fikrlash qobiliyatini va tafakkurini rivojlantirish.

-Korreksion ish olib borish.

Dars turi: Noan'anaviy

Dars tipi: Mustahkamlash

Dars metodi: Ko'rgazmali, (ko'rgazmali metodning illyustrativ ya'ni jadval va demonstrativ ya'ni AKT turi orqali) savol-javob, amaliy. (turli interfaol metodlar va didaktik o'yinlar)

Dars jihozi: 1-sinf "MATEMATIKA" darsligi, sanoq cho'plar, harf va sonlar kassasi, AKT mahsuloti, videoroliklar, topshiriqlar kitobchasi, rangli rasmlar.

Darsning texnologik xaritasi.

T/r	Darsning borish bosqichlari	Darsda foydalaniladigan metodlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	<i>Kirish suhbat. Nafas mashqi</i>	4 daqiqa

2	O‘tilgan mavzuni so‘rash.	“Rassom matematik” o‘yini.	6 daqiqa
3.	Yangi mavzuga zamin hozirlash	“Yangi tovuq yili” o‘yini.	4 daqiqa
4	Yangi mavzu bayoni. Darslik bilan ishlash	“Tarkibni top” o‘yini, “Masalani yeching” o‘yini, “Ayiqcha va asal” o‘yini, “Yashirin sonlarni top” o‘yini,	20daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	“Taqqoslashda yetakchi” o‘yini, “Topamiz” o‘yin metodi.	8 daqiqa
6	Baholash va rag‘batlantirish.	Ballarni e‘lon qilish. Taqdirlash.	2 daqiqa
7	Uyga vazifa berish.	Tushuntirish, topshiriq berish.	2 daqiqa

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

a) salomlashish;

b)navbatchi axboroti:


-Aziz bolajonlar bugungi darsimiz noan‘anaviy tarzda olib boriladi. Bilimingizni sinash va tizimlashtirish uchun sizga bir nechta topshiriqlar beriladi. Har bir topshiriq individual va jamoaviy topshiriqqa bo‘linadi. Individual topshiriq ham umumiy tarzda baholanib, a‘lo baholar soni ko‘p bo‘lishi jamoaga ball olib keladi. (O‘quvchilarni darsga psixologik tayyorlash.) **(Kommunikativlik kompetensiyalarining elementlarini shakllantirish.)**





-II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: (O‘nlikka birliklarni qo‘shib 20 ni hosil qilish, yigirmadan sonni ayirish)

-O‘tgan mavzumizni mustahkamlashdan oldin sizlarni 2 guruhga bo‘lamiz, shiorlarimizni tanlab olamiz. Dars mazmuni va mohiyati tushuntiriladi.




-Hammaga omad yor bo‘lsin bolajonlar. Endi navbat birinchi individual topshirig‘imizga.

-To'g'ri javob ko'pligiga qarab g'olib guruh aniqlanadi.

II. Yangi mavzuga zamin hozirlash.

2-topshiriq: "Yangi tovuq yili" o'yini. (Individual topshiriq. Har bir o'quvchiga topshiriqlar kitobchasi tarqatiladi) Har bir guruh o'quvchilarga alohida rangli shakllardan tayyorlangan tovuq tasviri beriladi. Tovuq rasmi tovuq yili bilan o'zaro bog'lanadi. O'quvchilar shakllarning har birining sonini sanab yozadilar. Umumiy soni 20 chiqadi. 20 ham jadvalga (interfaol metodlardan T-sxemasiga) qayt etiladi. Muhimi tezkorlikka e'tibor beriladi. (*Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasni shakllantirish.*)

-To'g'ri javoblar sonining ko'pligiga qarab g'olib guruh aniqlanadi.




Shakllar	Soni	Umumiy soni
Aylana		
Yarim aylana		
Uchburchak		
To'rtburchak		




-Topshirig'imizning javobi 20 soni chiqdi to'g'rimi, bugungi yangi mavzumiz ham 20 ichida misol masala yechish.


-Yangi mavzuni daftaringizga yozib oling.

6.  Rasmda berilgan ma'lumotlar asosida ustunli diagramma tuzamiz.



IV. Yangi mavzu bayoni:

1.  Umida kostyum uchun uchburchak va munchoqlar bilan dizayn yaratmoqda. Uning dizaynida har bir naqsh uchun 3 ta uchburchak va 18 ta munchoq kerak bo'ladi. Umida jami 72 ta uchburchakdan foydalandi. U qancha munchoq ishlatadi? Masalani yechish uchun quyidagi rasm-dan foydalaning.



2.  Ketma-ketlikni davom ettiring.

2	12								
10	14								
5	10								
8	16								
4	8								

3. 



Masalani yeching.


Oshpaz 5 kilogrammli hamda 10 kilo-grammli qoplardan tanlab, 35 kg un sotib olishi kerak. U 35 kg unni necha xil usul bilan sotib olishi mumkin?


-DAM OLIISH DAQIQASI: Aziz bolajonlar! Siz nafaqat hozir miriqib dam olasiz, balki salgina e'tiborli ham bo'lasiz. Ekrandagi videorolikimizda nechtdan

jonivorlar qatnashganligini va bahor fasliga oid nimalarni ko'rganligingizni aytib berasizlar.

V.

Mustahkamlash:

4.  Dilorom rasmda ko'rsatilgandek halqalardan piramida yasab, yuqoridan qarasa, nechta halqani ko'ra oladi?



5.  O'yinchoq ayiqchalarni rangi va shakli bo'yicha guruhlariga ajratamiz.



 **Jadvalni to'ldir metodi**


a	b	a+b	a-b	a*b	a:b
12	4				
	5	20			
6				18	
	3		9		
24					8



Topshiriq so'ngida o'quvchilar baholanadi. Barcha rag'batlar hisoblanadi eng ko'p besh olgan guruh g'olib sanaladi.(Dars oxirigacha: 3 minut)

V. **Baholash:** O'quvchilarni va guruh umumiy dars jarayonidagi ishtiroki va topshiriqlardan olgan baholariga qarab rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa:

6.  7 kun davomida har kecha necha soat uxlaganingizni yozib boring va chiziqli diagramma yarating.

Kunlar	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
Soat							